

## INGLIZ TILINI O‘QITISHDA TANA TILIDAN FOYDALANISHNING ASOSIY SAMARALARI

**Shermamatova Zaynab**

O‘qituvchi

Samarqand davlat chet tillari instituti

**Suyunboyeva Muxlisa, Shodmonqulova Shaxzoda**

Talabalar

Samarqand davlat chet tillari instituti

### ABSTRACT

Ushbu maqolada qanday qilib o‘qitish tizimida verballik bilan bir qatorda nonverballikdan foydalanish orqali o‘rgatishni tezlashtirish va samarali qilish to‘g‘risida boradi. Bu usullarni o‘z faoliyatingiz davomida qo‘llash orqali muvaffaqiyatga erishasiz.

**Keywords:** verbal, nonverbal, tana tili, muloqot, ko‘z harakatlari, imo-ishora.

Muloqotlarimiz jarayonida shunga guvoh bo‘lamizki, o‘z fikrlarimizni va qarashlarimizni yetkazishda faqat so‘zlarning o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Nutqimiz tinglovchiga tushunarli va aniq bo‘lishi uchun turli tana tillaridan foydalanamiz. Albert Meyerabening takidlashicha ma‘lumotlarni yetkazish jarayonida verbal vositalar 7 foiz, ovoz vositalari, intonatsiya 38 foiz, noverbal vositalar 55 foizdan ishtirok etar ekan. Insonlar suxbatlari davomida so‘z vositalari orqali 35 foizdan kamroq, noverbal harakatlar orqali esa 65 foizdan ortiq malumot yetkazilishi aniqlangan. Bundan ko‘rinadiki tana tili orqali ko‘proq ma‘lumot yetkazilishiga erishamiz ekan.

Tana tili o‘z ichiga biror so‘z yoki yozuvlarni olmaydi. Bu o‘z nomi tana tili tana azolarimiz gapirishi ular ma‘lumot yetkazishi kerak. Noverbal vositalar o‘z ichiga tana harakatlarini, imo-ishora, yuz ifodalari va ko‘z harakatlarini oladi. Bunda fikrimizni hech qanday so‘zlarsiz faqat qo‘l harakatlari, yuz ifodalari, yoki ko‘z harakatlari orqali suxbatdoshimizga yetkazamiz. Bundan tashqari tuyg‘ularni ifodalaydigan noverbal harakatlar ham bor. Bular qoshlarni ko‘tarish, peshonani burishtirish, ko‘zlarni burish yoki lablarni burish kabi mushaklarning harakatlarini o‘z ichiga oladi. Talabalar o‘zlarini noqulay his qilganda qoshlarini tushirgan, peshonalarini tirishtirgan, ayniqsa ko‘z bilan aloqa qilishda qiynalishi mumkin. Bunda o‘qituvchi talabalarni tushunishi va o‘zining

ham noverbal harakatlari orqali ma'lumotlarni ularga yetkazishi, qulay muhit yaratib berishi lozim. Oddiygina jilmayish ham o'zlarini qulay his qilish uchun o'rganuvchilarga katta yordam beradi. Ayniqsa yuz ifodasi bilan yetkazilgan ma'lumotni so'z bilan tarif etish qiyin, biz esa buni birgina qarashimiz orqali hammaga bildirib qo'ya olamiz.

Ba'zi noverbal vositalar barcha madaniyatlarda deyarli bir xil ma'noni, ba'zilari esa aksincha boshqa tushunchani beradi. Albatta biz biror davlatga yashash uchun yoki sayoxat uyushtirishimizdan oldin o'sha davlatning madaniyati, ananalarini yaxshi bilgan holda sayohat qilishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero o'zimizni noqulay axvolga solib qo'ymaymiz. Buning ustiga aholi bilan til topishib ketishingiz ham osonlashadi.

Noverbal muloqot juda samarali va qulay usullardan hisblanadi. Buni o'rnida ishlatish ham mahorat, ular insonda mavjud bo'lishi lozim bo'lgan komponentlardan biridir. Ayniqsa o'qitish jarayonida tana tilidan foydalanish juda samarali usullardan biri. Bunda o'qituvchining yuz ifodasi, ko'z harakatlari katta ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi birinchi navbatda sinfxonada qulay muhitni yaratishi lozim. O'quvchilar o'zlarini qulay his qilishi, fikrlarini erkin, tortinmasdan bildira olishi, o'rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi bolalarga jilmayib qo'yishi orqali ularga nisbatan samimiyatini yetkazadi. Tabassum stresni kamaytiradi, kayfiyatni ko'taradi, shuningdek motivatsiyani oshiradi. Tabassum o'qituvchi va talabalar o'rtasida ijobiy hislatlarni namoyon qiladi. Tarbiyalovchilar uchun ko'z aloqasini ushlab muhim. Bu birinchidan sinfni nazorat qilish, sinf etiborini jalb qilish va javob beruvchi talabani topishni osonlashtiradi. O'qituvchi darsni tushuntirayotganida hamma o'quvchilar uchun qulay bo'lgan joyda turib gapirishi, ularga savollar berishi va ularning savollariga ham tayyor bo'lishi muhim. Shuningdek o'qituvchilar vaqti - vaqti bilan turishi harakat qilishlari kerak. Bu vaqtda bolalarning energiyasi qayta ishga tushadi va e'tibori oshadi. Misol uchun, agar o'qituvchi sinfni o'ziga qaratmoqchi bo'lsa, ko'rsatmalar, tushuntirishlar, biror narsani aniqlashtirish jarayonida turgan holda olib borsa ancha samarali bo'ladi. Sababi miyyamiz faol harakatlarga e'tiborni yaxshiroq qaratadi. O'qituvchi tushuntirishi jarayonida ham kuzatadi. Qaysi bola nima qilyabdi, kim darsga quloq solyabdi, kim mavzuga tushunyabdi, qaysi o'quvchi malumotlarni anglamayabdi - hammasini kuzatib boradi. Bu jarayonlar yaqqol bolalarning yuz holatida ko'rinib turadi. Bunda o'qituvchi albatta e'tiborli, ziyrak bo'lishi lozim.

Biz aytmoqchi bo'lgan so'zlar yuz ifodamiz orqali namoyon bo'ladi. Biz biror o'quvchini darsni a'lo darajada tayorlab kelganligi sababli maqtamoqchi yoki bundan xursand ekanligimizni ifodalamoqchi bo'lsak mamnuniyat ila

tabassum qilib qo'yish kifoya. U qilgan ishidan zavqlanadi, maqtov eshitganidan boshi osmonga yetadi. O'qishga qiziqishi ortadi. O'rganish samaradorligi oshadi.

Turli madaniyatlarda birgina tana tili bir nechta va turlicha ma'no anglatishi mumkin. Misol uchun, Amerika davlatida bosh barmoqni ko'rsatish hammasi yaxshi, joyida degan ma'noni anglatadi jumladan O'zbekistonda ham shunday ma'noga ega. Bundan tashqari u yerda yo'l xodimlari mashinani chetga olishi buyurilganda ham bosh barmoq ko'rsatiladi. Biz yuqorida aytib o'tgan ko'z aloqasini saqlash o'rgatish jarayonida muhim. Ammo bu barcha millatlar uchun to'g'ri kelmasligi mumkin. Jumladan, ko'z aloqasini saqlash bazi davlatlarda Yaponiya, Koreya va O'zbekistonda uzoq vaqt tikilib qarash juda yomon holat sanaladi. Ayollar va yosh bolalar o'zidan katta yoshli bo'lgan erkaklar ko'ziga tik qarab gapirmaydi. Bu odobsizlik, tarbiyasi yomonligidan dalolat beradi. Ammo bu Yevropa davlatlarida odobsizlik sanalmaydi. Ko'ziga tik qaramasdan gapirsa ular aldayabdi, yolg'on gapiryabdi deb tushunishadi. Shu sababli, tana tilini to'g'ri joyda to'g'ri foydalanish bizning faqat foydamizga ishlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Allan Piz (2015) tana tili
2. Murodova Sevara (2022) Importance of body language in teaching English
3. Feruza Khandamova (2020) body language and teachers' attitude in teaching process
4. [https://sg.docworkspace.com/d/sIKallPqZAb\\_EyaoG](https://sg.docworkspace.com/d/sIKallPqZAb_EyaoG)
5. <https://sg.docworkspace.com/d/sIDSllPqZAdLFyaoG>